# O‘QITUVCHILARDA KREATIV SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATSION YONDASHUVI

**Nazarova Zarrina Allaberdiyevna**
*TerDPI Pedagogika kafedrasi katta o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada o`qituvchilarda kreativ sifatlatini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish va o‘ziga xos xususiyatlari, bu kasbning umumiy faoliyat bilan uyg‘unlik imkonini beruvchi xususiyatlar, sifatlarning optimal majmuasi, shu bilan birga uning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shuvchi yaxlitlik haqida mulohaza yuritilgan.*

**Tayanch so`zlar:** *Kreativ, o`qituvchi, sifatlar, rivojlanish, takomillashtirish, dizayner, dinmika, transformatsiya, kasbiy-pedagogik, ilg‘or tajriba, pedagogik vazifalar, o'quv va tarbiyaviy vaziyat, modul.*

**Аннотатsія:** *В статье рассматривается совершенствование педагогической системы развития творческих качеств педагогов и ее специфические черты, черты, позволяющие гармонировать с общей деятельностью данной профессии, оптимальный набор качеств, и в то же время целостность, которая делает достойный вклад в его развитие.*

**Ключевые слова:** *Креатив, педагог, качества, развитие, совершенствование, конструктор, динамика, трансформация, профессионально-педагогический, передовой опыт, педагогические задачи, учебно-воспитательная ситуация, модуль.*

**Annotation:** *The article discusses the improvement of the pedagogical system for the development of the creative qualities of teachers and its specific features, features that allow it to be in harmony with the general activities of this profession, the optimal set of qualities, and at the same time integrity, which makes a worthy contribution to its development.*

**Key words:** *Creativity, teacher, qualities, development, improvement, designer, dynamics, transformation, professional and pedagogical, best practices, pedagogical tasks, educational situation, module.*

Jahon miqyosida bugungi kunga kelib ta’lim istiqbolli, integratsion, xalqaro andozalarga mos barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan tizimli xalqaro ta’lim konsepsiyasida «butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish» dolzarb vazifa sifatida belgilangan[3]. Mazkur holatni bevosita kuzatib, chuqur tahlil qilgan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustda xalq ta’limi, oliy ta’lim xodimlari bilan bo’lgan muloqotda uzluksiz ta’lim tizimida olib borilishi kerak bo’lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, “Bugungi kunda ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o’qituvchilarning obro’sini ko’tarish, shu bilan bir qatorda bugun o’qituvchilarning o’zlari ham ta’lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim”[4], - degan bir qator fikrlarni bildirib o’tdi. Shuningdek, yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev 2020-yil

---

[3] Inncheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and euitable quality education ang lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

[4] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta’limi va oliy ta’lim tizimi o’qituvchilari bilan bo’lib o’tgan uchrashuvda so’zlagan nutqi. 2019.08

24-yanvarda Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham, ta’lim-tarbiyaning uzviy bog’liqligini yanada kuchaytirish maqsadida “Sharqona qarashlarimizda ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi. Bu esa bugungi kun o’qituvchisidan katta mas’uliyatni talab qiladi”, [5]- deb ta’kidladilar.

Bugungi kunda o‘qituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtitrish ta`lim muassasalaridagi poydevori boshlang`ich sinf o`qituvchilarini raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yangi O`zbekistonimizni eng dolzarb bo‘g‘ini sifatida isloh etilayotganligi o‘qituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish muammolarining samarali yechimlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Hozirgi kunda jamiyatimizda -iqtisodiy o‘zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta’lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi – murakkab hodisa sifatida umum e’tiborli va ma’naviy qiziqishiga molik jarayonga aylandi. Ta’lim tizimining umumiy maqsadi teng huquqli va demokratik davlat talabiga javob beruvchi jamiyat a’zolarini tarbiyalab berishdan iboratdir. Demak, kasbiy faoliyatga pedagogik kreativ sifatlar yordamida inson hayotiga, shaxs tarbiyasiga, munosabatlar rivojlanishiga ma’lum ta’sir ko‘rsatish mumkin. O`qituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirishning pedagogik jihatdan tadqiq qilinayotganiga hali ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q, shunga qaramay yildan-yilga tadqiqotchilar tomonidan unga qaratilayotgan e’tibor kuchayib bormoqda. Bugungi kunda kasbiy-pedagogik ta’limni takomillashtirish muammolari muhim davlat muammolari bilan bir qatopda turibdi. O`qituvchillarda kreativ sifatlarni rivojlatirishning uyg‘unlashuvi esa ta’limni taraqqiy ettirishning muhim omili hisoblanadi. Pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o`qituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirishning ham o‘ziga xos o`rin tutadi. Ayniqsa, ta’limni modernizatsiyalash bilan bog‘liq islohotlarning joriy bosqichida o`qituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirishning muammosi yanada yorqin va aniq namoyon bo‘lmoqda. O‘qituvchilar tayyorlashning mazmuni kasbiy, amaliy, psixologik, metodik, tadqiqiy faoliyat turlari bilan bir qatorda o`qituvchillarda kreativlik sifatlarni rivojlantirish bilan boyib bormoqda.

Zamonaviy jamiyatda ijodiy fazilatlar shaxsiy rivojlanish va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishda muhim rol o'ynaydi. Ijodiy fikrlash va harakat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan pedagoglar bolalarni yanada samaraliroq o‘qitishi va tarbiyalashi, shuningdek, yangi dastur va o‘qitish usullarini yaratishi mumkin.

O'qituvchilarda ijodiy fazilatlarni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Ijodiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish. Buni ijodiy fikrlashni rivojlantirish usullari bo'yicha treninglar, seminarlar va mahorat darslari orqali amalga oshirish va ijodiy laboratoriyalarni tashkil etish. O‘qituvchilarni ijodiy jamoalar faoliyatiga kiritish mumkin, ularda o‘zaro fikr va tajriba almashish, yangi dastur va uslublarni yaratish mumkin.

2. Shaxsiy ijodiy loyihalarni ishlab chiqish. Pedagoglar ijodkorlikni namoyon etish va yangi g‘oyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi o‘z loyihalarini ishlab chiqishi va amalga oshirishi mumkin.

---

[5] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi matni. http://uza.uz

3. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Zamonaviy texnologiyalar o'qituvchilarda ijodiy fazilatlarni rivojlantirishni rag'batlantiradigan yangi ta'lim muhitini yaratishga imkon beradi.

4. O'yin va tajriba orqali o'rganish. O'qitishda o'yin va eksperimental elementlardan foydalanish ijodiy fazilatlarni rivojlantirishni rag'batlantirishi mumkin, chunki ular sezgi, fantaziya va original fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

O‘qituvchilar o‘rtasida ijodiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish ta’limga innovatsion, integratsion va ijodiy yondashuvlar uchun shart-sharoitlar yaratishga yordam beradi, bu esa ta’lim va umuman tarbiya sifatini oshirishga yordam beradi.

O`qituvchilarda kreativlik sifatlarni rivojlantirishda integratsion yondashuvda quyidagi tavsiyalarni beramiz:

Demak, O‘qituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish zamonaviy ta`lim-tarbiya, fan va texnologiyalar vositalari va krativ pedagoglar faoliyat turlari, mana shu faoliyatni tashkil etish shakllari hamda metodlaridan foydalanib, vazifaning o‘ziga xos “Ko'ring, tinglang va o'rganing” to‘plamlari hal etuvchi o`qituvchilarda kreativlik sifatlarini dinamik tizim demakdir.

Bunday tizimning faoliyat ko‘rsatish maqsadi O‘qituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirishning pedagogik tizimini shaxsining asosiy yo‘naltiruvchi sifati bo‘lgan “Ko'ring, tinglang va o'rganing” dinamikasini imkon qadar rivojlantirishdan iborat bo‘ladi.

O`qituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirishga oid transformatsiya darsni tashkil etish va olib borish, o‘quv materalini bayon etish, o‘qituvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash, turli tipdagi (seminar, trening, ochiq) darslarni olib borishda zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish;

- o`qituvchilarda kreativlik sifatlarini akmeologik darajada ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishga, olib borishga o‘rgatish;

Shunday qilib, «o‘qituvchilarda kreativ sifatlar»ni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligi turli darajalarda mantiqiy o‘zaro bog‘liqligini ko‘rib chiqdik. Unga ko‘ra ta’kidlash mumkinki, oliy pedagogik ta’lim tizimi, KHK va ta`lim muasasalarinig barcha jabhalarida muayyan o‘qituvchi ixtisosligidan qat’iy nazar, «o`qituvchilarda kreativ sifatlar» rivojlanishini ko‘zda tutuvchi tajribalarni e’tiborga olgan holda tashkillashtirilishi kerak. Pedagogik faoliyat jarayonining samaradorlik mezoni, psixologik BMK va kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligi bizning fikrimizcha o`qituvchilarning kreativlik sifatlarida bo‘lishi kerak.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Inncheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and euitable quality education ang lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta’limi va oliy ta’lim tizimi o’qituvchilari bilan bo’lib o’tgan uchrashuvda so’zlagan nutqi. 2019.08

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi matni. http://uza.uz

4. Файзуллаева Н. Педагогик билимлар – ўқитувчи касбий маҳоратининг назарий асоси //Uzluksiz ta'lim ж. – Т.: 2006. 6-сон. – 102-б.
5. www.kreativpedagog.uz